

**BADIIY ASARDA METAFORANING QO‘LLANISHI. (O‘TKIR HOSHIMOVNING
“NUR BORKI SOYA BOR” ASARI ASOSIDA)**

Zulfizar Abduvayitova

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada metafora hodisasi, uning ma’no ko’lamlari va badiiy adabiyotdagi o’rni tahlil etiladi. Xususan, O’tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romanida qo’llanilgan metaforalarning asar mazmunini ochishdagi, qahramonlar xarakteri va ruhiy holatini yoritishdagi hamda badiiy jozibadorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada yozuvchi uslubning o’ziga xosligi va metaforaning badiiy tafakkur vositasi sifatidagi roli publitsistik ruhda tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется явление метафоры, её смысловые возможности и роль в художественной литературе. В частности, рассматривается значение метафор, использованных в романе Уткира Хашимова «Есть свет — есть и тень», в раскрытии содержания произведения, освещении характера и внутреннего мира героев, а также в повышении художественной выразительности текста. В статье в публицистическом духе анализируются своеобразие авторского стиля и роль метафоры как средства художественного мышления.

Annotation: This article analyzes the phenomenon of metaphor, its semantic scope, and its role in literary works. In particular, it examines the significance of the metaphors used in O’tkir Hoshimov’s novel “Where There Is Light, There Is Shadow” in revealing the content of the work, portraying the characters’ personalities and psychological states, and enhancing its artistic expressiveness. The article also discusses, in a journalistic manner, the uniqueness of the writer’s style and the role of metaphor as a means of artistic thinking.

Kalit so’z: Metafora, badiiy til, o’xshatish, ma’no ko’chish, hosila ma’no, semema, badiiy tafakkur.

Adabiyot inson tafakkurining eng yuksak ifodalaridan biridir. Badiiy so’z orqali yozuvchi nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki uni yangi ma’no, yangi ohang bilan boyitadi. Shu jarayonda metafora- ya’ni ma’no ko’chimi



hodisasi asarning estetik va ma'naviy qudratini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqimizda keng me'no ko'chish usullaridan biri metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Bu bir predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir:

Misol qilib oladigan bo'lsak, ariqning boshi.

Metafora haqida ko'plab fikrlar ilgari surilgan va ular turlicha talqinda yoritib berilgan. quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Metafora (gr. Metaphora-ko'chirish)-nutq mexanizmi biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligini asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi. Metafora hodisasi asosan ot turkumi doirasida, qisman fe'lda uchraydi.[46]1

Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagilardan biri sabab bo'ladi.

1. Bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchi qo'llaniladi;

2. Biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qollaniladi.[97;98]2

3. Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani sememaga aylangani nisbatan kam.[130]3

4. Metaforada narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik bir necha xil bo'lishi mumkin.

1. Shakliy o'xshashlik: odam qulog'i-qozonning qulog'i.

2. O'rin-payt o'xshashligi: ko'ylak etagi-tog' etagi.

3. Belgi o'xshashligi: shirin taom-shirin bola.

4. Harakat-holat o'xshashligi: inson yig'ladi-osmon yig'ladi.

Quyida “Nur borki, soya bor” romanini olaylik.

Asar nomiga qaraydigan bo'lsak ham yozuvchi “ezgulik, yaxshilik, haqiqat” kabi ma'nolarni ifodalash uchun birgina “nur so'zidan, “yovuzlik, zulmat, yolg'on “ sozlarini ifodalash uchun esa birgina “soya “ so'zidan foydalanganini, qayerda nur bo'lsa o'sha yerda albatta soya ham bolishini qisqagina yoritib bergan.



Shakliy o'xshashlik.

Gulzor chetidagi xonaki binafshalar munis ko'zlarini ko'kka tikib quyoshga talpinardi - munis ko'zlar [145]

Eski-tuski lattalar tiqishtirilgan qop ustiga paqir to'ntarib qo'yilganida qanaqa ko'rinsa, "fabrikant"ning qaddi-qomati ham shunaqa ko'rinardi.[148].

Kulcha yuzlarida dehqoncha sodda bir ifoda aks etib turgan edi - kulcha yuz [204]

Qoshiqdekkina yuzi - qoshiq [213]

Belgi o'xshashligi:

Olovli hayajon bilan hikoya qilar - [58].

Chaqnoq ko'zlarida chuqur ma'no bor edi- chaqnoq ko'zlar, chuqur ma'no.[70]

Sherzodga qarab yumshoq jilmaydi - yumshoq [88]

Sayfi Soqiyevich bu odam bilan qalin bo'lsa kerak - qalin [96].

Dilkash tabassumi jonlandi - dilkash tabassum [126].

Muharrir yana uning ko'ziga qattiq tikildi - qattiq[127]

Hovli sathi takis, chinni-chiroq qilib supurilgan - chinni- chiroq [137]

Burchakda bir tup azamat quyuq soya tashlagan - quyuq soya[170]

Rauf Abdullayevichning samimiyat to'la chehrasi jonlandi- samimiyat to'la chehra [175]

Bolakayning ko'zlarida esa faqat go'daklardagina bo'ladigan tiniq bir o't porladi - tiniq bir o't [176]

Doktor opaning ketidan qarab turarkan, qalbida qandaydir iliq, mehrlil bir tuyg'u uyg'ondi - iliq tuyg'u [177].

Maydoncha chinniday qilib supurilgan - chinniday [203]

Shunga qaramay iloji boricha yumshoqroq qilib gapirdi - yumshoq gapirmoq - [212].

Ko'zlarida allaqanday olov bor - olov [229].

Momaqaldiraq asabiy suron soldi - asabiy [249].

Ko'cha ozoda edi - ozoda [273].

Kunchiqar tomonda oltin kipriklarini pirpiratib, quyosh ko'z ochdi - oltin kipriklar, quyosh ko'z ochdi [287].

Harakat-holat o'xshashligi:

Qizning ko'zlari chog'day yonib ketdi - chogday yonib ketdi [58].

Ko'zlariga jiddiyat cho'kdi - jiddiyat cho'kdi [109].

Zuhraning quloqlariga o'qday kirdi- o'qday kirdi [111].



Ko'zlarida tabassum o'ynadi - tabassum o'ynadi [125].

Ammo, zum o'tmay mashina,qorda sirg'angan chanadek silliq suzib keldi-da, uning shundoq ro'parasiga to'xtadi - [114]

Uning rangi bo'zday oqarib ketgan , ko'zlari sovuq yaltirardi. [117]

Osmonda nisholdadek ko'pirgan to'da-to'da bulutlar [241]

Endi uning yuragi g'azabdan gupillar, vujudi o't bo'lib yonib ketayotganday bo'lardi [270]

Kunchiqar tomonda oltin kipriklarini pirpiratib quyosh ko'z ochdi. [287].

Shunday qilib, O'tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” degan g'oyasi butun ijodining falsafiy asosini tashkil etadi. Bu metafora hayotning o'ziga xos qonuniyatini, insonning ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashini chuqur ifodalaydi. Yozuvchi bu orqali o'quvchini o'ylashga,yurakdagi nurni asrashga, hayot sinovlariga bardoshli bo'lishga undaydi. Hoshimov asarlari bizni nur sari yetaklaydi,chunki hayotda nur bo'lmasa, soya ham bo'lmaydi-demak,yashashning o'zi nur va soyaning mushtarak yo'lidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining qisqacha ommabop grammatikasi.

Mengliyev Toshkent “Ishonchli hamkor” 2021

2. Hozirgi o'zbek tili .

Sayfullayeva R.R, Mengliyev Toshkent “Zebo Print”

3.Hozirgi o'zbek tili.

Sayfullayeva R.R. Toshkent “Tafakkur avlodi” 2021

5.Nur borki,soya bor

O'tkir Hoshimov Toshkent “Meriyus” 2017

